

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 8, 31 Август

OILA - PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA

Rajabov Rasulbek Sobir o'g'li - UrDu

Birinchi bo'lim bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Oila - mafkuraviy tabiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila - jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Zero, oilani pedagogik va psixologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida o'rganib, o'smir yoshidagi o'quvchilarda oilani qadriyat sifatida shakllantirish muammosini tahlil qilish mumkin.

Kalit so'zlar: Oila, voyaga etmagan bolalar, sog'lom oilani shakllantirish, mafkuraviy tabiya, oilaviy tarbiya, oilaviy kelishmovchiliklar, ijtimoiy mavqe, o'zbekona qadriyatlar.

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy ho'jayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Darhaqiqat, bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati, birinchi galda, uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalangan. Mamlakatda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

Muxtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoev oila haqida shunday deydi: "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman"¹. SHu

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 8, 31 Август

fikrning o‘ziyoq oilani e‘zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko‘tarish bizning ongimizga mustahkam jo bo‘lganligining yorqin dalilidir.

Biz adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, jamg‘armalarning ahamiyati, oilaning muhofazasi ortib boraveradi. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyatini kuchaytirish, ya’ni “Kuchli davlatdan, kuchli jamiyat sari” davlat qurilishi dasturini hayotga joriy etish demakdir.

Bugungi kunda Respublikamizda o‘n mingtaga yaqin mahalla va qishloq fuqarolari yig‘inlari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va ommaviy ishlarni olib bormoqda, oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga, voyaga etmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Davlatimiz tomonidan oilaga kun sayin g‘amxo‘rlik qilish, unga har tarafdin moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bob 76- moddasiga binoan, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir².

Mamlakatimizda oilaning davlat muhofazasida bo‘lishini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish majmui kotibiyati olib boradi.

O‘tgan vaqt davomida Respublikamizda ayollar va o‘sib kelayotgan yosh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sog‘lom oilani shakllantirish, tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish ishlari o‘zining ijobiy samarasini berdi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasining ikkinchi yig‘ilishida Oliy Majlis tarkibida “Oila va ayollar muammolari komissiyasi” tashkil etildi. Ushbu komissiya oila va ayollar muammolari bo‘yicha davr talablariga javob beradigan oilani saqlash va mustahkamlashga, yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan yangi qonunlar loyihalarini tayyorlash vazifalarini o‘z oldiga qo‘yadi.

² <https://lex.uz/docs/6445145#6445716>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 8, 31 Август

O‘zbekiston SHarq mamlakatlari sirasiga kiruvchi davlatdir. Ma’lumki, SHarqda qadimdan oila muqaddas sanalgan. Unga bunday e’zozli munosabat bugungi kunda ham o‘zgargani yo‘q.

Mamlakatimiz aholisini tarbiyalashda milliy istiqlol g‘oyasining o‘rni alohidadir. “Oila - mafkuraviy tabiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila - jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog‘lom muhit - sog‘lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash - milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi”³.

Bizning nazarimizda, oila muxitida shaxsning xar jixatdan barkamol bo‘lib voyaga etishi uchun zarur bo‘lgan omillar oila xo‘jaligini boshqarish jarayonida oila a‘zolari o‘rtasida yuzaga keluvchi xuquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va xakozo mazmundagi oilaviy munosabat, muomala aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya’ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustakil xarakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjuddir. SHu bois O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida, ijtimoiy jamiyatda yangilanish, keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy raqobat qaror topayotgan ushbu davrda mustaxkam oilalarni shakllantirish xar qachongidan xam dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, zardushtiyalar dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”da oila qurish xodisasiga balog‘at yoshiga etgan yigit va qizlar tomonidan ijtimoiy vazifalardan birining amalga oshirilishi sifatida yondashilgan.

SHarqda bir necha asrlar oldin oila va uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar, uning shaxs kamolotidagi o‘rni va roli xususida YUsof Xos Xojib, Kaykovus, Jaloliddin Davoniy, Muxammad Sodiq Koshg‘ariy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz xam o‘z qarashlarini bayon etib kelganlar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijod qilgan o‘zbek ma’rifatparvarlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning asarlarida xalqimizning milliy qadriyatlari, turmush tarzi, oiladagi farzandlar

³ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: «Ўзбекистон», 2000.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 8, 31 Август

tarbiyasi milliy ruxda ifodalangan⁴.

Oila va oilaviy tarbiya masalasi yuzasidan bir kator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgandir. Nikox shartnomasini tuzish, oilaviy kelishmovchiliklar, shuningdek, er-xotin o'rtasidagi muammolar va oilaviy munosabatlarni tashkil etishning ijtimoiy, xuquqiy, psixologik xamda pedagogik jihatlari pedagog, psixolog, faylasuf va xuquqshunos olimlar O.A.Karimova, A.K.Munavvarov, F.B.Shoumarov, SH.B.Shoumarov, X.Uzoqov, E.Foziev, L.Oripova, R.Saidov, M.Axmedov, M.Maxmudov, O.Safarov, N.Sa'dullaeva, M.Xolmatova, M.O.Inomova, O.Musurmonova, S. Yo'ldosheva, I.V.Grebennikov, I.V.Dubrovina xamda G.P.Razumiginalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Oilada bolalar tarbiyasini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, oila tarbiyasini yo'lga qo'yishda milliy an'analardan foydalanish masalalari esa YU.P.Azarov, M.Dadajonov, M.J.Inoyatov, M.O.Inomova, K.F.Kamolova, SH.SHodmonova, SH.Otajonova, I.X.Karimova, O.Bo'riev, B.A.Mirenskiy, S.E.Karklina, I.D.Vodzinskiy, A.I.Kochetov, K.A.Kulinkovich xamda YA.Raxmonova kabi pedogog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagog va psixolog olimlar V.Karimova, J.Alimova, R.D.Fayzulin xamda D.Salimovalarning ilmiy tadqiqot ishlarining bosh g'oyasi yoshlarda o'zbek oilalari haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish, kizlarni oilaviy xayotga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni, o'smir yoshlarni sinfdan xamda maktabdan tashqari sharoitlarda oilaviy hayotga tayyorlash masalalari bo'lib, ular atroflicha yoritib berilgan.

Oilaning ijtimoiy mavqe, uning jamiyatdagi o'rni xamda bolalar tarbiyasini tashkil etishdagi roli, ota-onalar xamda keksa avlod vakillarining bu jarayondagi ishtiroki, oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish masalalarining O.Musurmonova ishlarida chuqur taxlil etilganligini alohida qayd etib o'tish zarur. SHuningdek, M.Maxmudova (xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash) va M.Abdullaeva («Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanini o'qitish misolida o'smirlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlash) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar mohiyatiga ko'ra tadqiqot muammosiga yaqinligi ajralib turadi.

Oila tarbiyasi mazmuniga ko'ra milliy xarakterga ega bo'lib, ko'plab oilalarda bolalarning o'zbekona qadriyatlar ruxida tarbiyalanishlariga e'tibor qaratiladi. Bu

⁴ Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T. O'qituvchi. 1994.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 8, 31 Август

jihtadan M.Quronov (milliy tarbiyaning pedagogik jihatlari), A.Muxsieva (oilada milliy tarbiyani tashkil etish) xamda YU.SHaamirova (noto'liq oilalarda o'smirlarni milliy-ma'naviy tarbiyalash) kabilarning tadqiqotlari muxim ahamiyatga ega.

Tadqiqot muammosiga yaqin mavzularda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari xamda yaratilgan adabiyotlarning mazmunini o'rganish hamda tahlil etish shuni ko'rsatdiki, o'smir yoshidagi o'quvchilarda oilani qadriyat sifatida shakllantirish muammosi, shakllantirish jarayonda oilaning o'ziga xos muhim o'rni va rolini tadqiq etish, oilani qadriyat sifatida shakllantirish faoliyatning mazmuni xamda ilmiy asoslarini ishlab chikish, oila va maktab o'rtasida bu boradagi xamkorlikni tashkil etish, ushbu faoliyat samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etuvchi shakl, metod va vositalarni aniqlash bugungi kundagi dolzarb muamolardan biri xisoblanadi.